



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 98 sahifa,
3-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Use of Innovative Pedagogical Technologies in the Development of Critical Thinking	16
Gulnar Atakhanova Orinbaevna	
Current Aspects of Designing and Implementing Extracurricular Educational Activities at the Primary General Education Level.....	20
Amankosova Dinara Gabitovna	
Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyachi shaxsiyati va kasbiy mahorati shakllanishining nazariy asoslari....	24
Axmadaliyeva Moxlaroy To'xtapolatovna	
Pedagogical Model and Stages of Teaching Subjects Through a Project-Based Approach	28
Bannayev Qosimjon	
Lotin tili va zamonaviy tibbiy terminologiya: tarixi, vazifasi va amaliy ahamiyati	31
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Motor alaliyaning nonutqiy simptomatikasi	34
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari	38
Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik savodxonligini robototexnika elementlari asosida rivojlantirish.....	41
Jabborova Umida	
Fizika fanini mutaxassislik fanlari integratsiyasi asosida o'qitishda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	45
Xayrullayev Asliddin Isatullayevich	
Talaba tomonidan mutaxassislik tilini o'zlashtirishda monologik nutqni o'rgatishning samarali usullari masalasi haqida.....	51
Karimov N. M.	
Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlashda kasbiy motiv va motivatsiyaning o'rni	54
Melikova Elnora Shuxratovna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda pragmatik kompetensiyaning roli.....	58
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
O'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	62
Nishonova Dilafuz	
Computer-Based Formative Assessment: Advantages and Challenges in Teaching English to High School Students	66
Obidjonova Shokhista Bakhtiyorovna	
Metata'lim texnologiyalari asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.....	70
O'rolboyeva Durдона Sayfiddin qizi	
Sun'iy intellekt asosidagi darslarning an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.....	73
Rasulev Bobirjan Atxamovich	
Pedagogik faoliyatda pedagogning kasbiy taraqqiyoti motivatsiyasining psixologik xususiyatlari	78
Rustamova Surayyo Shaxobiddinovna	
Innovatsion kompetentlik tushunchasi va uning ilmiy-pedagogik asoslari.....	84
Soliyev Eliyor Ravshan o'g'li	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idrokini o'yinlar yordamida rivojlantirishning samarali usullari	88
Xalilova Shahnoza	
Zamonaviy ta'limda kommunikativ kompetensiyaning o'rni va ahamiyati.....	92
Yaqubova Nigoraxon Ibrohimjon qizi	

TALABALAR ETNOMADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Isomiddinov Asliddin Baxriddin o'g'li

Andijon davlat chet tillari instituti dotsent v.b, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik omillari tahlil qilinadi. Etnomadaniy kompetentlikning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi ochib beriladi. Pedagogik omillar sifatida o'quv dasturlarining mazmuni, zamonaviy o'qitish metodlari, professor-o'qituvchilarning roli va multikultural ta'lim muhitining ahamiyati ko'rsatiladi. Psixologik omillar qatorida milliy identifikatsiya, empatiya, emotsional intellekt, madaniy stereotiplarni yengib o'tish mexanizmlari va ijtimoiy-psixologik treninglarning samaradorligi yoritiladi. Raqamli texnologiyalarning etnomadaniy kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari hamda baholash va monitoring tizimlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida talabalarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: etnomadaniy kompetentlik, pedagogik omillar, psixologik omillar, madaniyatlararo muloqot, multikultural ta'lim, talabalar, oliy ta'lim, milliy identifikatsiya, empatiya, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological factors in developing students' ethnocultural competence. The cognitive, emotional, and behavioral components of ethnocultural competence and their interrelationships are explored. Pedagogical factors include curriculum content, modern teaching methods, the role of faculty, and the importance of a multicultural educational environment. Psychological factors encompass national identification, empathy, emotional intelligence, mechanisms for overcoming cultural stereotypes, and the effectiveness of socio-psychological training. The potential of digital technologies in developing ethnocultural competence, as well as assessment and monitoring systems, are discussed. The research findings serve as a foundation for developing practical recommendations for enhancing students' intercultural communication skills in higher education institutions.

Key words: ethnocultural competence, pedagogical factors, psychological factors, intercultural communication, multicultural education, students, higher education, national identification, empathy, digital technologies.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические факторы развития этнокультурной компетентности студентов. Раскрываются когнитивные, эмоциональные и поведенческие компоненты этнокультурной компетентности и их взаимосвязь. В качестве педагогических факторов рассматриваются содержание учебных программ, современные методы обучения, роль преподавателей и значение мультикультурной образовательной среды. Среди психологических факторов освещаются национальная идентификация, эмпатия, эмоциональный интеллект, механизмы преодоления культурных стереотипов и эффективность социально-психологических тренингов. Обсуждаются возможности цифровых технологий в развитии этнокультурной компетентности, а также системы оценки и мониторинга. Результаты исследования служат основой для разработки практических рекомендаций по развитию навыков межкультурной коммуникации студентов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: этнокультурная компетентность, педагогические факторы, психологические факторы, межкультурная коммуникация, мультикультурное образование, студенты, высшее образование, национальная идентификация, эмпатия, цифровые технологии.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari jadal kechayotgan zamonaviy dunyoda etnomadaniy kompetentlik masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimida talabalarning etnomadaniy kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham muhim omil hisoblanadi. Etnomadaniy kompetentlik deganda shaxsning o'z milliy madaniyatini chuqur anglashi, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarashi va madaniyatlararo muloqotda samarali ishtirok etish qobiliyati tushuniladi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalar turli millat va madaniyat vakillaridan iborat bo'lib, bu o'quv jarayonini yanada



rang-barang qilish bilan birga, ma'lum pedagogik va psixologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli talabalarning etnomadaniy kompetentligini rivojlantirish uchun maxsus pedagogik-psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Etnomadaniy kompetentlik murakkab tuzilmaga ega bo'lib, u kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga oladi. Kognitiv komponent turli madaniyatlar haqidagi bilimlarni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini anglashni o'z ichiga olsa, emotsional komponent boshqa madaniyatlarga nisbatan ijobiy munosabat va empatiyani shakllantiradi. Xulq-atvor komponenti esa madaniyatlararo muloqotda to'g'ri harakat qilish, moslashuvchanlik va diplomatik ko'nikmalarni namoyon etadi. Etnomadaniy kompetentlikning shakllanishi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, unda shaxsning butun hayotiy tajribasi, oilaviy tarbiya, ta'lim muhiti va ijtimoiy aloqalar muhim rol o'ynaydi. Oliy ta'lim muassasalarida bu jarayon yanada faollashadi, chunki talabalar turli madaniyat vakillari bilan bevosita muloqotga kirishadi va o'z dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalarning etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'quv dasturlarining mazmuni bu jarayonda asosiy yo'nalish beruvchi vosita hisoblanadi. Fanlararo integratsiya orqali talabalar turli madaniyatlarning tarixiy rivojlanishi, falsafiy asoslari va zamonaviy holati haqida tizimli bilimlar oladi. Gumanitar fanlar blokida madaniyatshunoslik, etnosotsiologiya, dinlar tarixi kabi fanlarning o'qitilishi talabalarning madaniy ufqini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qitish metodikasining zamonaviy yondashuvlari etnomadaniy kompetentlikni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Interaktiv metodlar, ayniqsa, rolli o'yinlar, keys-stadilar, munozaralar talabalarni faol ishtirokchiga aylantiradi. Madaniyatlararo dialoglar, virtual ekskursiyalar va xalqaro loyihalar orqali talabalar turli madaniyatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tandem-ta'lim metodikasi orqali turli millat vakillari o'zaro til va madaniyat almashinuvini amalga oshiradi. Professor-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi va ularning madaniy kompetentligi talabalar uchun muhim yo'naltiruvchi vazifasini o'taydi. O'qituvchining turli madaniyatlarga nisbatan xolisona munosabati, madaniy xilma-xillikni qadrlashi va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini namoyon etishi talabalar uchun ijobiy namuna bo'ladi. O'qituvchilarning etnopedagogik tayyorgarligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtira olish qobiliyati o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Ta'lim muhitining multikultural xarakteri talabalarning etnomadaniy tajribasini boyitadi. Oliy ta'lim muassasalarida turli milliy madaniyat kunlarini o'tkazish, etnografik muzeylar tashkil etish, milliy oshxonalar ochish kabi tadbirlar madaniy xilma-xillikni namoyish etadi. Talabalar turar joylarida turli millat vakillarining birgalikda yashashi tabiiy madaniy almashinuv muhitini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Etnomadaniy kompetentlikning rivojlanishida psixologik omillar shaxsning ichki motivatsiyasi va ruhiy holatini belgilaydi. Shaxsning o'z milliy identifikatsiyasi va madaniy o'zligini anglashi boshqa madaniyatlarga ochiqlik uchun mustahkam asos yaratadi. O'z madaniyatini yaxshi bilgan va qadrlaydigan shaxs boshqa madaniyatlarga ham hurmat bilan qarashga qodir bo'ladi. Empatiya va emotsional intellektning rivojlanganligi madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Boshqa madaniyat vakillarining his-tuyg'ularini anglash, ularning nuqtai nazarini tushunishga intilish va emotsional qo'llab-quvvatlash ko'rsatish qobiliyati madaniy to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Refleksiv qobiliyatlarining rivojlanganligi esa o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish va madaniy kontekstga moslashtirish imkonini beradi.

Madaniy stereotiplar va noto'g'ri qarashlarni yengib o'tish jarayoni maxsus psixologik ishni talab qiladi. Kognitiv dissonans holatlarini boshqarish, yangi madaniy tajribani qabul qilishga tayyor bo'lish va o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqishga ochiqlik etnomadaniy kompetentlikning shakllanishida muhim psixologik mexanizmlar hisoblanadi. Tolerantlik va sabr-toqat fazilatlari madaniy farqlarni hurmat bilan qabul qilishga yordam beradi. Ijtimoiy-psixologik treninglar talabalarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Kommunikativ treninglar, konfliktlarni hal qilish bo'yicha mashg'ulotlar, madaniy sensitivlikni oshirish dasturlari talabalarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlaydi. Guruh dinamikasi va o'zaro ta'sir jarayonlari orqali talabalar amaliy tajriba oltiradi. Pedagogik va psixologik omillarning o'zaro ta'siri etnomadaniy kompetentlikning yaxlit rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida kognitiv bilimlarning emotsional tajriba bilan uyg'unlashuvi, nazariy bilimlarning amaliy ko'nikmalarga aylanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Individual yondashuv har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini, madaniy tajribasini va o'rganish uslubini hisobga olishni taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalarida etnomadaniy muhitni yaratish institutsional darajada yondashuvni talab qiladi. Ma'muriyatning qo'llab-quvvatlashi, tegishli infratuzilmani yaratish, xalqaro hamkorlik

dasturlarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar tizimli xarakterga ega bo'lishi kerak. Talabalar o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati ham madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilishi muhim.

Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari etnomadaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun yangi ufqlar ochadi. Virtual madaniy almashinuvlar, onlayn konferensiyalar, raqamli ta'lim platformalari orqali talabalar dunyo madaniyatlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Multimediya vositalarining qo'llanilishi o'quv materiallarini yanada ko'rgazmali va ta'sirchan qiladi. Etnomadaniy kompetentlik darajasini baholash murakkab jarayon bo'lib, turli metodlar va vositalarni qo'llashni talab qiladi. Portfolio metodikasi talabalarning madaniyatlararo tajribasini hujjatlashtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Refleksiv esse va o'z-o'zini baholash shakllari talabalarning shaxsiy rivojlanishini kuzatishga yordam beradi. Monitoring tizimi orqali etnomadaniy kompetentlikning rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Longitudinal tadqiqotlar talabalarning butun o'qish davri mobaynida madaniy kompetentligining o'sishini ko'rsatadi. Sifat va miqdor ko'rsatkichlarining uyg'unligi baholashning ob'yektivligini ta'minlaydi.

XULOSA

Talabalarning etnomadaniy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik va psixologik omillarning kompleks ta'siri orqali bu jarayonning samaradorligini oshirish mumkin. O'quv dasturlarining mazmunini boyitish, zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash, multikultural ta'lim muhitini yaratish va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali talabalarning madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Kelajakda etnomadaniy kompetentlik nafaqat shaxsiy rivojlanish vositasi, balki professional faoliyatning muhim komponenti sifatida yanada katta ahamiyat kasb etadi. Globallashuv sharoitida madaniyatlararo hamkorlik ko'nikmalari raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro maydonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur shart-sharoitga aylanadi. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari talabalarning etnomadaniy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi, bu borada tizimli va izchil siyosat olib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаева М.Н. Этномаданий компетентликни шакллантиришнинг педагогик асослари / М.Н. Абдуллаева. – Тошкент: Фан, 2023. – 256 б.
2. Байденко В.И. Компетентностный подход к проектированию государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования / В.И. Байденко. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2022. – 114 с.
3. Газиев Э.Г. Психология межкультурной коммуникации в условиях глобализации / Э.Г. Газиев, Д.Р. Рахимова // Педагогика и психология. – 2023. – №2. – С. 45-58.
4. Джураев Р.Х. Олий таълимда инновацион технологиялар: муаммолар ва ечимлар / Р.Х. Джураев, С.А. Турсунов. – Тошкент: Ўқитувчи, 2022. – 320 б.
5. Каримов Б.Р. Талабалар этномаданий тафаккурини ривожлантириш методикаси / Б.Р. Каримов // Узлуксиз таълим. – 2024. – №1. – Б. 72-81.
6. Лебедева Н.М. Этническая и кросс-культурная психология: учебник для вузов / Н.М. Лебедева. – М.: МАКС Пресс, 2021. – 367 с.
7. Мусаев К.И. Мультикультурное образование в современном вузе: теория и практика / К.И. Мусаев, Г.Т. Хамидова // Высшее образование сегодня. – 2023. – №4. – С. 28-35.
8. Поштарева Т.В. Формирование этнокультурной компетентности студентов в полиэтнической образовательной среде / Т.В. Поштарева // Педагогика. – 2022. – №3. – С. 41-50.
9. Саидова М.Х. Ўзбекистонда олий таълим тизимини модернизациялаш: этномаданий контекст / М.Х. Саидова, Н.А. Азизов. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2023. – 184 б.
10. Якиманская И.С. Психологические основы межкультурной компетентности в образовательном процессе / И.С. Якиманская, А.М. Биккулова // Вопросы психологии. – 2024. – №1. – С. 15-27.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.